

“E-auksion” savdo platformasi orqali Xalq IPOsida ishtirok eting



O'zbekistonda IPO qilgan korxona bormi o'zi?

O'zbekiston tarixida birinchi marta “Kvars” AJ 2017 yil dekabrida “Toshkent” fond birjasida IPO o'tkazgan. Shundan keyin “Jizzax plastmassa” AJ ham aksiyalarini ochiq ravishda fond birjasiga joylagan. So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, davlat aktivlarini xususiylashtirish orqali xususiy mulkchilikni kengaytirish, samarasiz ishlayotgan va istiqbolsiz korxonalarni tugatish yuzasidan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023-yil 24-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” 102-sun qarori imzolandi. Qarorga muvofiq: aksiya paketlari “bitta aksiya — bitta lot” tamoyili asosida xalq IPOsini o'tkazish tartibida ommaviy savdolar orqali sotiladigan 40 ta yirik korxonalar aksiyalari savdoga chiqarilishi belgilandi.

Albatta, bu mahalliy qimmatli qog'ozlar bozorining ildamlashiga turtki bo'ladi. O'zbekistondagi kapital tanqisligi ko'pchilik ishbilarmonlar ham, top menedjerlar ham chuqur anglaydigan haqiqat.

Hozirda “E-auksion” savdo platformasidan 1,5 mln ta foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan. Aksiyalarni sotib olishda “E-auksion” elektron savdo platformasida xalqning barcha qatlamlari uchun soddalashtirilgan va teng sharoitlar yaratilgan. Mahalliy investorlarga “E-auksion” elektron savdo platformasi, shu jumladan mobil ilovasi orqali real vaqt rejimida ularni identifikatsiya qilish, investitsiya vositachilari bilan shartnoma tuzish va depo hisob raqamini ochish imkoniyati yaratiladi.

Aksiyalarni sotib olish uchun elektron arizalar mahalliy investorning o'zi tomonidan yoki investorlar nomidan harakat qiluvchi investitsiya vositachisi orqali berilishi mumkin bo'ladi.

Onlayn auksionlar yakunlariga ko'ra oldi-sotdi shartnomalari qimmatli qog'ozlar savdolari tashkilotchilarining savdo maydonchalaridan tashqarida ro'yxatdan o'tkaziladi va uning natijasi to'g'risidagi ma'lumot investorning shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

IPO'lar sarmoya qiluvchi odamlar uchun nima beradi?

IPO'lar ortidan yirik, daromadli va barqaror kompaniyalarni tanlab, ularning aksiyalarini sotib olish odamlarga pul yig'ish imkoniyatini beradi. O'zbekistonda pul odatda chorva mollari, AQSh dollari yoki tilla buyumlar ko'rinishida yig'iladi. Yoki bankka depozit qilib qo'yiladi. Bank depozitlari yiliga qayta moliyalash stavkasini hisobga olgan holda omonatlarni foizi bilan to'laydi. Biroq aksiyalarga uzoq muddatga pul tikishda murakkab daromad degan imkoniyat bo'lib, biznes rivojlanishi, ulushlarga bo'lgan talab oshishi tufayli investitsiyalar eksponensial (shiddatli, to'xtovsiz) o'sib borishi mumkin.

**"Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish" AJ Surxondaryo viloyat vakili
L. G'oibov**